

**Davlat soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari M.Maxkamovning faoliyat
samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning
ASOSIY MEZONLARI**

Vakant lavozimlarga nomzodlarni vacancy.argos.uz sayti orqali jamlash, ulardan hujjatlarni qabul qilish va saralash, test sinovlari, suhbatni inson omilisiz maxsus elektron dastur asosida amalga oshirishni nazorat qilish.

Respublika bo‘yicha **noyabr** oyida **vacancy.argos.uz** sayti orqali **1158 ta** vakant lavozimlar bo‘yicha **165 ta** e‘lonlar berilib, **266 nafar** nomzodlar davlat soliq xizmati organlariga ishga qabul qilindi.

Davlat soliq xizmat organlarida korrupsiya va mansab suiiste‘molchiligiga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktik tadbirlar o‘tkazilishini ta‘minlash.

Davlat soliq xizmat organlarida korrupsiya va mansab suiiste‘molchiligiga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlar ishtirokida **mart** oyida shaxsiy tarkib bilan **219 marotaba** profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

2022-yil mart